O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISHDA UNICEF BILAN HAMKORLIK

Komilova Charros Sultonboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistratura 1-kurs talabasi
charroskomilova26@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda inklyuziv ta‘limning mohiyati, O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limning rivojlanishi, ta‘limga ehtiyojmand bolalarning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda UNICEF bilan faoliyati va bularni amalga oshirishdagi muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, yurtimizdagi inklyuziv ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha farmon va qarorlar yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *O‘zbekiston, inkyuziv ta‘lim, BMT, UNICEF, konsepsiya, SISF*

Abstract: *This thesis analyzes the essence of inclusive education, the development of inclusive education in Uzbekistan, cooperation with UNICEF in expanding educational opportunities for children with special educational needs, and the challenges in implementing these efforts. Additionally, it highlights the decrees, resolutions, and initiatives aimed at developing inclusive education in our country.*

Keywords: *Uzbekistan, inclusive education, UN, UNICEF, concept, SISF*

Аннотация: *В данной тезисе анализируются сущность инклюзивного образования, развитие инклюзивного образования в Узбекистане, деятельность совместно с ЮНИСЕФ по расширению возможностей получения образования детьми, нуждающимися в образовательных потребностях, а также проблемы реализации этих мер. Также освещаются указы, постановления и инициативы по развитию инклюзивного образования в нашей стране.*

Ключевые слова: *Узбекистан, инклюзивное образование, ООН, ЮНИСЕФ, концепция, SISF*

Bugungi globallashuv zamonida Jahon ta‘limi amaliyotida ta‘lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Hozirda har bir davlatda inklyuziv ta‘limni joriy qilish zamon talabining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Shu qatori bizning yurtimizda ham bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki har bir O‘zbekiston fuqorosi har qanday jismoniy holatidan

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

qat‘iy nazar erkin bilim olishga huquqiga egadir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlarimizni keng qamrovli maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta‘lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida tashkil etishning huquqiy - me‘yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish maqsadida ta‘lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi [1].

Bilamizki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi bo’lib kelmoqda.

Inklyuziv ta‘lim davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta‘limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat‘iy nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta‘lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta‘lim tizimidir [2].

Bugungi kunda shunday bolalar borki, nogiron bo’lishiga qaramay, o’zining qobiliyati bilan barchani lol qila oladi. Ularni har tomonlama qo’llab – quvvatlash har birimizning muhim vazifamizdir. Zeroki, Vatanimiz kelajagi biz yoshlar qo’limizdadir. Buni chuqur anglagan holda har birimiz imkoniyatimizga yarasha harakat qilishimiz kerak. Inklyuziv ta‘limdan asosiy maqsad shuki, ijtimoiy kelib chiqishidan harbir bolani jamiyatning eng muhim bo‘lagi ekanligini tushuntirishdir. Ya‘ni imkoniyati cheklangan bolalarni alohida maktablarda emas, balki sog’lom bolalar bilan birgalikda qo‘shib o‘qitish, ijtimoiy holatidan qa‘tiy nazar, hammaning imkoniyati bir ekanligini tushuntirish eng muhim vazifalardan biridir. Azaldan ongimizga singib ketgan “sening imkoniyating cheklangan” degan iborani yo‘qotishiz kerak. Chunki kerak bo‘lsa ular qaysidir sohada sog’lom bolalardan ham ustun bo’la olishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, jamiyat barchamizniki.

BMT 1975 - yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta‘kidlanishicha: Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muhofaza qilish maqsadida BMT 1989-yilda “Bolalar huquqlari

to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko‘ngilli tarzda zimmalariga “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” qoidalarini ma‘muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq qilish majburiyatini oldilar. “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat‘iy nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega” (“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya, 3-modda) [3].

2007-yildan beri Ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash fondi (SISF) «O‘zbekistonda inklyuziv ta'lim» nomli dasturga rahbarlik qilib kelmoqda. Uning asosiy maqsadi nogironligi bo‘lgan barcha bolalar va o‘smirlar uchun ta'limda tenglikni targ‘ib qilishdan iborat. Ushbu strategiya boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘rta maktablar va kollejlargacha davom etadigan bosqichma-bosqich inklyuziya modelini taklif qilish orqali o‘quvchilarning umrbod inklyuziv ta‘limini qo‘llab-quvvatlaydi hamda bu tizimda ta'limning umumiy sifatini yaxshilandi [4].

Fikrimcha, mazkur dastur O’zbekistonda inklyuziv ta’limni shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fond tomonidan ilgari surilgan inklyuziv ta’limni avval boshlang’ich sinflarga, keyinchalik yuqori sinflarga joriy qilish ta’limning uzviyligini va sifatini oshiradi. Chunki bosqichma – bosqich amalga oshirilgan ishlarda kadrlar masalasi ham alohida o’rin tutadi. Shuning uchun ham bunday ta’limni birdaniga joriy qilib bo’lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur hujjatda mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish imkonini beruvchi qator huquqiy va tashkiliy vazifalar belgilab berilgan. 2020-2025-yillarda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi va “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Unda maxsus ta‘limga muhtoj bolalar ta‘limini tegishli davrgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan [5]. Bunda asosan inklyuziv ta‘limni dastlab kichik sinflarga, keyinchalik yuqori sinflarga qo‘llash nazarda tutilgan. Va pedagog kadrlarning malakasini oshirish uchun ularni qayta tayyorlash muhimligi uqtirildi. Tajriba sinovi uchun uni dastlab ayrim hududlarda qo‘llash tavsiya qilindi. Inklyuziv ta‘limning bu darajada muhim

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

ekanligi yuqoridagi Prezidentimiz farmonlarida ham o‘z aksini topgan. Ammo buni amalga oshirishda bir qator bir qator muammolar bor:

1. Moddiy texnik muammolar (maxsus jihozlangan sinfxonalarning mavjud emasligi)

2. Kadrlar bilan bog‘liq muammolar (defektolog, logoped va boshqa kadrlar yetishmovchiligi)

3. Boshqarish va moliyaviy muammolar va hokazo.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, UNICEF va O’zbekiston hamkorligida inklyuziv ta’lim bo’yicha qator islohotlar va uning ijrosi amalga oshirilmoqda. Bolalarning ta’lim olishini mustahkamlash va tenglik tamoyillarini qaror toptirish eng muhim vazifamiz bo’lib kelmoqda. Ularda vatanparvarlik hissini oshirish ham juda muihimdir. 2019-2025-yillar inklyuziv ta’lim rivoji uchun muhim poydevor bo’la oldi deb bemalol ayta olamiz. Inklyuziv ta’limning rivoji uchun malakali kadrlar va moddiy-texnik imkoniyatlar ham yetarlicha hal qilinmoqda. Jamiyatda o’zaro tenglik g’oyasi barchamiz uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Unicef tomonidan ilgari surilgan har bir bolaning individual ta’lim olishiga ko’maklashish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim berish tamoyilining qo’llanilishi juda muhim yo’nalishlardan biridir. Zeroki har bir fuqaro O’zbekistonda ta’lim olish huquqiga bevosita egadir. Bu borada bir qancha tavsiyalarim mavjud:

- Maktablar uchun alohida inklyuziv ta‘lim bo‘yicha o‘quv kurslarini joriy qilish;
- Ota-onalar va mutaxassislar hamkorligini yo‘lga qo‘yish;
- Maktablarda kamsitilishning oldini olish;
- Xalqaro tajribani o‘rganib, amaliyotda qo‘llash va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. **Ўзбекистон Республикаси Президенти.** Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида : 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармон.

2. Педагогик атамалар луғати. — Т.: Фан, 2008. — Б. 47.

3. **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси.** Умумий ўрта таълим ташкилотларида инклюзив таълимни ташкил этиш тартиби тўғрисидаги Низом : Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йилдаги 638-сон қарорига илова.

4. **Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ).** Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги декларация. — 1975 йил.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

5. **Ўзбекистон Республикаси Президенти.** Алоҳида таълим олиш эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида : 2020 йил 13 октябрдаги қарор.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING